

## TURK XOQONLIGI:TARAQQIYOT VA TANAZZUL

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDOGOGIKA INSTITUTI

TADBIRKOTLIK VA BOSHQARUV FAKULTETI

1-BOSQICH TALABALARI

**TOSHMAMATOVA DILOROM ABDURASHID QIZI**

[toshmamatovadilorom6@gmail.com](mailto:toshmamatovadilorom6@gmail.com)

Tel:+998930780703

**NORTO'RAYEVA TO'XTABIBI SAYRIDDIN QIZI**

[norturayevatuxtabibi@gmail.com](mailto:norturayevatuxtabibi@gmail.com)

Tel:+998931166603

**RAHMATULLAYEVA FOTIMA OTABEK QIZI**

[rahmatullayevafotima73@gmail.com](mailto:rahmatullayevafotima73@gmail.com)

Tel:+998887679009

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada Turk xoqonligining tashkil topishidan to inqirozga yuz tutishigacha bo'lgan davr haqida ma'lumot beradi. Turk xoqonligi vujudga kelishi jarayonlari, G'arbiy va Sharqiy Turk xoqonligiga ajralib ketishi hamda ushbu davrda aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti kabilar yoritildi

**KALIT SO'ZLAR:** Turk, Xoqon, O'n o'q budun, Bumin, Jujanlar, Oltoy, Kadxudot, Qora budun,

**АННОТАЦИЯ:** В данной статье представлены сведения о периоде от основания Турецкого ханства до его кризиса. Освещены процессы становления Турецкого ханства, социально-экономическая жизнь населения в этот период, упадок ханства и его причины.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** Тюрк, Бумин, Жужжанлар, Алтай, Западный Путь, Абруйское восстание, Ашин, Асан Шад, Турфон.

**ABSTRACT:** This article provides information about the period from the establishment of the Turkish Khaganate to the completion of the work. The processes of the establishment of the Turkish khanate, the socio-economic situation of the population in the current period, the decline of the khanate and its causes were covered.

**KEY WORDS:** Turk, Bumin, Zhujanlar, Altai, Western Way, Abrui rebellion, Ashin, Asan Shad, Turfon.

**KIRISH:** Ma'lumki turkiy xalqlar to'g'risida turlicha afsonalar tarqalgan. Afsonaga ko'ra "Turk" so'zi Oltoy tog'ining eng qadimgi nomidan kelib chiqqan deb qaraladi. Turkiylar esa eng yirik etnoslardan birining nomi. Turk so'zi baquvvat, barkamol, odillik kabi ma'nolarini anglatadi. Ba'zi afsonalarda aytilishicha, G'arbiy dengiz soxilida yashagan turkiylarning ota-bobolari qo'shni qabilalar tomonidan qirib tashlangan. O'n yoshli bola yashirilib favqulodda tirik qolgan. O'sha yerda yashaydigan urg'ochi bo'ri unga xotin bo'ladi. Ochlikdan va dushmanlardan qutqarish uchun o'sha bolani bo'ri olib Turfon tog'lari tomon ketadi. Tog'da bir Sor bor edi. U yerda urg'ochi bo'ri o'nta bola tug'adi. Bolalarning otasi o'sha qutqarilgan turk edi. Bo'ri bolalari Turfondagi ayollarga uylanadilar. Har bir boladan bir urug' kelib chiqadi. U'g'illardan birining ismi Ashin edi. Uning nomi hamma qabila nomini anglatadigan bo'ladi. U o'z aka-ukalariga nisbatan aqilliroq bo'lganligidan qabilaning dohiysi bo'lib oladi. Urug' asta-sekin bir necha yuz kishiga etadi. Ikkinchi afsonaga ko'ra, turk qabilasining ota-bobolari saltanatiga borib taqaladi. Bu saltanat Oltoynining shimolida joylashgan edi. Qabila boshlig'i Abanbuning o'n oltita ukasi bor edi, Shulardan biri Ichasin Ishid «Bo'ri o'g'li» deb nom olgandi. Saltanati dushmanlar tomonidan tor-mor qilinadi.

**ASOSIY QISM:** VI-asrning II yarmida Turk xoqonligi vujudga kelgunga qadar O'rta Osiyo hududida ikki yirik davlat, Eftaliylar va Jujanlar davlati hukm surardi. Turk

xoqonligining asoschilari bo‘lmish turkiy Ashina qabilasi esa bu paytda Oltoy tog‘arising janubiy yon bag‘irlarida istiqomat qilar va Jujanlar davlatiga tobe edi.

VI asrning oxiri, VII asrning boshlarida kuchli Turk xoqonligi davlati bo‘lganligi yozma manbalardan ma‘lum. Xitoy tarixchisi «qadimgi zamonlarda shimoldagi ko‘chmanchilar hech mahal bunday kuchli bo‘lmagan edilar», deb yozadi. «Qariyb barcha xonlar Xitoy malikalariga uylandilar, xitoy xonadoni esa har yili yuz bo‘lakdan ipak mato armug‘on qilib turdi» Turklar Bumin xukmronligi davrida jo‘janlarga zarba berib qaramlikdan xalos bo‘ldilar. Jujanlar qo‘l ostidagi ashina turklari kuchayib 545-yilda Tele qabilalarini, 551-yilda Esa jujanlarni yengadilar. Shu tariqa og‘aini Bumin va Istami 552-yili Turk xoqonligiga asos soladilar. Bumin o‘zini xoqon deb e‘lon qiladi 555-yilga kelib, Markaziy Osiyoning shimoli-sharqidagi qabilalar, Uzoq Sharqdagi kidan (qoraxitoy), tatabi, shivey kabi manchjur va mo‘g‘ul qabilalari, Yenisey bo‘yidagi turkiy qabilalar ham Turk xoqonligi qo‘shinlari tomonidan tobe etilib, 555-yildayoq Sharqiy Turkistonning katta qismi Turk xoqonligi qo‘l ostiga o‘tadi.

Turk xoqoni Mug‘on (553-572) Xitoyga 556-557 yillarda yurishlar qilib, bu yerdagi G‘arbiy Vey (Toba) sulolasi o‘rnini egallagan Shim. Shim. Si (550—577) va Chjou (577—581) sulolalarini o‘z ta‘sir doirasiga oladi. 563–567-yillar davomida Istami yabg‘u qo‘shinlari eftaliylar davlatiga ketma-ket Zarbalar berib, O‘rta Osiyo va Kaspiy dengizigacha bo‘lgan yerlarni egallashga Muvaffaq bo‘ladi. Buning oqibatida Eftaliylar davlati qulaydi. Turk xoqonligi O‘rta Osiyo erlarini ishg‘ol etgach, uning hududlari bevosita Eron chegarasiga tutashadi. Xoqonlik Eron bilan yaxshi qo‘shnichilik, savdosotiq aloqalarini o‘rnatishga intiladi. Shu maqsadda Eron shohi Xusrav I Anushervonga turk malikasi uzatiladi, Eronga Elchilar yuboriladi. Biroq Turk xoqonining Eronga ikki bor yuborgan elchilari faoliyati Muvaffiyatsiz chiqqach, Eronning xoqonlik bilan murosaga bormasligi, uning qat‘iy Dushmanligi ma‘lum bo‘ladi. Buning boisi Eron shohining O‘rta Osiyo hududlariga Da‘vogarligida edi. Bu esa, shubhasiz, bir necha bor xoqonlikning Eron bilan urushlarOlib borishiga sabab bo‘ladi. Istami qo‘shinlari Eron shohi Xisrav I ni yengadi. Eron Shohlari Turk xoqonligiga 400 ming Vizantiya tillosi hajmida tovon

to'lashga majbur bo'ladi. Mug'anxon va uning avlodlari g'arbda Qora dengizga qadar hududlarni zabt etib O'zlariga bo'ysundirganlar. Turk xoqonligi 568 – 569-yillarda o'sha davrning qudratli Davlati – Vizantiya bilan iqtisodiy va savdo-sotiq aloqalarini o'rnatishga intilib, so'g'd Savdogari Maniax boshchiligidagi elchilarni u erga yuboradi. Elchilar Imperator Yustinian II qabulida bo'ladi. Shundan so'ng Vizantiyannig Zemarx boshliq Elchilari xoqonlik davlatiga keladi. Bu esa shu davlatlar o'rtasida o'zaro ishonch va Savdo-tijorat munosabatlarini o'rnatishda muhim ahamiyat kasb etgan. Turk xoqonlari O'rta Osiyoda hukmronlik qilsa-da, biroq o'zlari bu hududga ko'chib kelmaganlar. Ular Yettisuv va boshqa hududlardagi bosh qarorgohlarida qolib, bo'ysungan hududlarni Mahalliy hukmdorlar orqali boshqarib, ulardan olinadigan soliq-o'lponlar va to'lovlar bilan kifoyalanganlar. Bundan ko'rinadiki, Turk xoqonligi davrida bu hududdagi mavjud mahalliy davlat tuzilmalari, ularning boshqaruv tizimlari saqlanib, ichki Siyosat bobidagi mustaqil faoliyatlari davom etgan. Xoqonlik istisno hollardagina O'lkaning ijtimoiy-siyosiy hayotiga aralashgan. Bu narsa ko'proq tashqi siyosat hamda xalqaro savdo-sotiq masalalariga daxl etardi.

Turk xoqonligi 565-yilda Eftaliylarga Naxshab shahri(hozirgi Qarshi shahri yaqinidagi Yerqo'rg'on xarobasi) atrofida og'ir zarba beradi. Turk xoqonligi eftaliylarga qarashli Choch, Farg'ona, Ustrushona, Samarkand, Xorazm, Buxoro, Kesh va Nasafni qo'lga kiritgan bir paytda xoqonlikning eftaliylarga qarshi ittifoqchisi Sosoniylar Eroni hukmdori Xusrav I Anushirvon esa Eftaliylar tarkibida bo'lgan Toxariston, Kobuliston, Zobuliston (Shimoliy Afg'oniston) viloyatlarini egallaydi. Sosoniylar bilan bevosita qo'shni bo'lib qolgan xoqonlikning Eronga yuborilgan elchilarining o'ldirilishi va sug'diy Maniax boshchiligida ipak tijoratini yo'lga qo'yish maqsadida yo'llangan elchilarga Eron shohining qo'pol munosabatda bo'lishi, hatto ular keltirgan ipak matolarni yoqishga buyurishi Turk xoqonligi va Sosoniylar o'rtasidagi ittifoqqa raxna soladi. Turk xoqonligi Eron bilan orani uzib, Vizantiya imperiyasiga yaqinlashish, u bilan savdo-sotiq, asosan, ipak tijoratini rivojlantirish uchun unga 567-yilda Maniax boshchiligida elchilik hay'atini yuboradi. Shu paytdan boshlab ikki davlat o'rtasida ittifoq vujudga keladi. Eron — Vizantiya o'rtasida 571-yili jang boshlangach, g'arbga yurishni davom ettirayotgan Istami

shu yili Shimoliy Kavkazdagi Kuban daryosi havzasi va Ozarbayjonni qo‘lga kiritadi. Boshqa tarafdin esa 567-yildanoq Sosoniylarga qarshi Amudaryo yo‘nalishi bo‘ylab yurish uyushtira boshlagan Istami bu jabhada katta muvaffaqiyatlar qozonib, Toxaristonni olgach, Turk xoqonligining janubi-g‘rbiy chegarasi Amudaryo bo‘lib qoladi. VI asrning so‘nggi choragida Kobuliston (Kobul), Zobuliston va Xurosonning katta qismi xoqonlik tarkibiga o‘tadi. 572-581 yillarda Turk xoqonligini Taspar xoqon boshqardi. 576 yilda Turk xoqonligi bilan Vizantiya orasida ixtilof paydo bo‘ladi va xoqonlik shu yili Qrimdagi Bosfor (Kerch)ni bosib oladi va 581- yilda Xersonesni qamal qiladi. Sharqiy Yevropada xoqonlik hududi bu paytgacha kelib Qora dengiz sohillari, sharqda Koreya bo‘g‘ozi, shimolida Ural tog‘lari, Yenisey va Baykalbo‘yi, janubida Afg‘oniston va Shimoliy Hindiston hududlarini o‘z ichiga olar edi.

580-yillarga kelib xoqonlikda ichki nizolar, taxt talashuvlar avj oladi. Bu ishga Xitoyning Suy sulolasi ham aralashadi. Shundan so‘ng xoqonlik bir muddat Oltoy tog‘larining sharqidan to Uzoq Sharqqacha bo‘lgan hududni, ya‘ni Janubiy Sibir, Urxun havzalari (Mo‘g‘uliston), Shimoliy Xitoy hududlarini o‘z ichiga oluvchi Sharqiy Turk xoqonligi va Oltoy tog‘larining g‘arbidagi xoqonlikka qaram o‘lkalarni o‘z ichiga oluvchi markazi Yettisuv bo‘lgan G‘arbiy Turk xoqonligi ga bo‘linib ketadi. Markazi O‘tukan vodiysi (Mo‘g‘uliston) bo‘lgan Sharqiy Turk xoqonligi Shibi xoqon (609—619) davrida Xitoydagi Suy imperiyasiga qarshi jang olib boradi. U 615-yilda Xitoyga yurish qilib Yaymin (Ordos) viloyatida imperator Yandini qurshovga oladi. Yaymindagi 41 qal‘adan 39 tasi Turk xoqonligi qo‘liga o‘tadi. 618-yilda Suy sulolasini ag‘darib, uning o‘rnini egallagan Tan sulolasining ishlariga ham Shibi xoqon aralashadi. U bu paytgacha Sharqda kidan va shivey qabilalarini, Janubi-G‘arbda Tuguxun (Togon) davlati hamda Turfon o‘lkasini bo‘ysundirgach, Xuanxe daryosini kechib o‘tib, Xitoy hududiga kirgan vaqtda Taxtga Eloqxon (620—630) o‘tiradi va 10 yil davomida, asosan, Xitoy bilan kurash olib boradi. Ikkimarta, 624—626 yillarda poytaxt Chananni qurshab oladi. Uning o‘limidan so‘ng Sharqiy Turk xoqonligi 50 yilga yaqin Xitoyga qaram bo‘lib qoladi. Sug‘d, Shosh, Farg‘ona hokimlarining arablarga qarshi kurashida qatnashadi. Bilga xoqon (716— 734) hukmronligi davrida Turk xoqonligi mintaqaning eng qudratli davlatlaridan biriga aylandi.

716-yilda Selenga daryosi havzasida istiqomat qiluvchi uygʻurlarta, 717- yilda oʻgʻuzlarga, 718-yilda qarluqlarta qarshi jang qilib, ularni xoqonlikka boʻysundiradi. Bu davrda xoqonlik hududlari sharqda Sirdaryoning sharqidan to gʻarbda Xingan togʻlari yonbagʻirlari (Manjuriya), Shandun oʻlkasi (Xitoyning shimoli-sharqi, Sariq dengizdagi Boxay koʻrfazigacha boʻlgan yerlar)ni, janubda Tibetning shimoli, Sharqiy Turkiston, Xitoyning shimoliy viloyatlaridan to shimolida Yenisey daryosi va Baykalboʻyini oʻz ichiga olganligi maʼlum boʻladi. 740-yillarga kelib Turk xoqonligi ham ichki, ham tashqi ziddiyatlarga duch keladi. Bilga xoqonning oʻgʻillari hukmronligi davrida xoqonlik zaiflashadi. 742—744 yillarda uygʻur, qarluq va basmil qabilalari birlashib, xoqonlikka hujum uyushtirishadi. 745 yilda ittifoqchilar Turk xoqonligining soʻnggi hukmdori Baymey xoqonni oʻldirishadi va xoqonlik taxti uygʻurlar qoʻliga oʻtadi.

Gʻarbiy Turk xoqonligi (Oʻn oq budun)- Qora dengiz va Dondan Tyan-Shan va shimoliy-sharqiy Hindiston sharqiy hududlariga qadar joylashgan dastlabki oʻrta asr turkiy davlati hisoblanadi (603-704). Gʻarbiy Turk xoqonligining gʻarbiy mulki janubiy-sharqiy Yevropaning dashtlariga yetib bordi. Uni Ashina sulolasidan boʻlgan kagonlar boshqargan. Gʻarbiy turk xoqonligi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan Sharqiy xoqonlikdan mutloqo ajralib turgan. Xoqonlik oʻzining qudratining eng yuqori choʻqqisiga Sheguy xoqon (610-618 yillarda) va uning ukasi Tun-yabgʻu-xoqon (618-630 yillarda) davrida erishgan. Toxariston va Afgʻonistonga yangi yurishlar davlat chegaralarini Hindistonning shimoli-gʻarbiy qismigacha kengaytirdi. Xoqon Tun-yabgʻu maʼmuriy islohot oʻtkazib, oʻlpon yigʻishni nazorat nazorat qilish uchun mintaqadagi oʻz vakillari — tudunlarni tayinladi. Toʻyobgʻu xoqon va Sheguy xoqon davrida Xoqonlik Oltoyda, Tarim daryosi havzasida va Amudaryo boʻyida chegaralarni tikladi. Suyab va Ming-Buloq Gʻarbiy Turk xoqonlarining qarorgohiga aylandi. Vizantiya imperatori Tun-yobgʻu bilan ittifoqda xoqon 626- yilda Sosoniylarga qarshi urush boshladi. 626 yilda turkiy qoʻshinlar Tiflisni egallab oldilar. Biroq, Vizantiya va Eron oʻrtasida tinchlik shartnomasining tuzilishi Tun-yobgʻu xoqonni harbiy harakatlarni toʻxtatishga majbur qildi. 630-yilda Ton-Yobgʻu xoqon amakisi Sibir Xon tomonidan uyushtirilgan fitna natijasida oʻldirildi. Tez orada u ham oʻldirildi. 630-yilda boshlangan taxt uchun kurash uzoq davom etgan urushga aylandi

Turk xoqonligi qoli ostida birlashgan xalqlar taraqqiyotning turli bosqichlarida bolganlar, aholining bir qismi otroq dehqonchilik bilan, qolgan bir qismi esa ko'chmanchi chorvachilik bilan shugullanganlar. Sugdiyona, Xorazm va Toharistonda dehqonchilik qiluvchi aholining kattagina qismi patriarxal oila sifatida yashar edilar. Erkin dehqon bilan bir qatorda kashovarzlar ham bor bolib, ular iqtisodiy jihatdan boy yer egasiga va hatto oz mustaqilligini saqlab qolgan dehqonga ham qaram bolganlar. Kashovarzlar jamiyatdagi asosiy kuch hisoblangan. VIVII asrlarda, qishloq, qorgon va shaharlarda mustahkam ornashib olgan, yer egasi bolgan zodagonlarning iqtisodiy va siyosiy quvvati kuchaya boshlaydi. Bu zamindor zodagonlar yozma manbalarda «dehqonlar» deb yuritilgan. Xususan konlarda va yer ishlarida qul mehnatidan koproq foydalanilgan. Bu davrda Xorazmda va ayniqsa, Sugdda savdogarlar jamiyatda yetakchi orinni egallaganlar. Kochmanchi turk qabilalari VIVII asrlarda otovlarda yashaganlar va tort gildirakli aravalarda kochib yurganlar. Aholining mehnatkash qismi «budun» yoki «qora budun» deb atalgan. Urug-qabilaning yirik vakillari esa «beklar» nomi bilan yuritilgan. Jamoani «xoqon» va zodagonlar kengashi «qurultoy» boshqargan. Patriarxal oilalarga oila boshliqlari «kadxudotlar» bosh bolganlar. Kadxudot atamasi sugdiylarga xos soz bolib, kochmanchi hayot kechiruvchi turklar esa «Kadxudot» so'zi orniga «Arxaun» atamasini ishlatar edilar. Garbiy Turk xoqonligida markazlashgan davlat bolmagan.

Xoqonlikda yashagan aholi asosan matodan, jundan va teridan kiyim kiyganlar. Erkaklar chakmon kiyib sochlarini oldirib yurganlar, «xotinlar esa sochlarini boshlariga orab, zargul solingan qora romol bilan boglab yurardilar», deb yozadi Syuan Szyan. Turk xoqonligi davrida madaniyat oz davriga nisbatan yuksak taraqqiyot darajasida bolgan. Juda qadim zamonlardan beri odat bolib kelgan tantanali bayramlar bu davrda ham davom etgan va yangi mazmunlar bilan boyigan. Masalan, Navroz (Yangi yil) tantanalarida yakkama-yakka kurashlar va kuch sinashlar bolgan. Turk xoqonligidagi xalqlarning bir qismi eftaliylar singari «J» lovchi shevalarda sozlashganlar. VI asrga kelganda u «Y» lovchi lahjaga aylanib, davlat tili bolib qolgan. Turk yozuvi bilan bir qatorda sugd va xorazm yozuvi ham keng qollanilganligini yuqorida takidlagan

edik. Sugd yozuvi 25 ta belgidan iborat bolib, chapdan onnga qarab yozilgan. Ularning taqvimi bolgan. Bunday taqvimlar Tojikiston toglaridan topilgan. Mirsodiq Ishoqovning ikriga kora sugd tilining amaliy kolami shu darajada keng bolganki, Orta Osiyo va Yettisuv viloyati hamda Sharqiy Turkistonning kop yerlarida aholi sugd va turkiy tillarda bemalol sozlashavergan. Shaharlarda sugd-turk ikki tilliligi rasmiy holat bolganligi Mahmud Qoshgariyning «Devonu lugotit turk» asarida ham qayd etilgan. Xullas, otmish avlodlarimiz yuksak darajada qadimiy yozma madaniyatga ega bolgan deb qat'iy xulosa chiqarish uchun hamma asoslarga egamiz. Bu yozuv madaniyat durdonalari keyinchalik arablar va mogullar bosqini davrida yoq qilib yuborilgan. Xoqon— xoqonlikdagi eng oliy kishi turkiylar orasida Buyuk Xoqon deb atalgan. Xoqondan keyingi o'rinda yabg'u turgan. Taxt vorisiga tegin unvoni berilgan. Boshqa oliy unvonlar — shod, eltabar. Sud ishlarini buyruqchi va tarxon olib borgan. Viloyatlardagi vakillar tudunlar deb atalgan. Harbiy ma'muriyat boshlig'i uchun tutuq qo'llanilgan.

658 yilda G'arbiy Turk xoqonligining ko'plab erlari Xitoy Tan imperiyasi tomonidan tortib olindi. Shu paytdan boshlab yagona xoqonlik o'z faoliyatini tugatdi. 698 yilda Turkashlar xoqonlik hududining bir qismida hokimiyatni egallab olishdi.

**XULOSA:** Turk xoqonligining davlatchiligimiz tarixida muhim o'rin tutganligi sir emas. VIVII asrlarda Turk xoqonligi hududida yashagan xalqlar diniy nuqtayi nazardan turli-tuman goyalar tasirida bolganlar. Deyarli har bir urug qabila va xalqning oz diniy etiqodi bolgan. Shu boisdan turk qabilalarida kopxudolilik keng tarqalgan. Jumladan, buryatlar 99 tangriga topinganlar va bu tangrilar dunyoni boshqaradi deb tushunganlar. Bundan tashqari, tabiat jismlariga sajda qilish va topinish xalqning kundalik odatiga aylangan. Jumladan, xoqon va amaldorlar quyosh, osmon, oy ruhiga siginib qurbonliklar keltirsalar, kambagal oddiy xalq yer-suv, osmon, oy va quyosh ruhiga, hayvon va qumlarga ham sajda qilib topinaverganlar.

### **FOYDALANILAN ADABIYOTLAR:**

1. Sagdullayev. A, Mavlonov. O'. O'zbekistonda davlat boshqaruvi tarixi. O'quv qo'llanma- T: Akademiya, 2006-y.
2. Azamat Ziyo. O'bek davlatchiligi tarixi "Sharq" nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh taxririya. Toshkent-2001-y.
3. Sagdullayev.A. Amino. B. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti–Toshkent: Akademiya, 2000-yil.
4. "Tarixnomayu Tabariy". 2-jild, 83-bet.
5. G'afurov.B.G. Tajikistan. Dravneyshaya drevnya j srednevskovaya istoriya. Dushanbe. 1989-g. c. 271.
6. "Turk xoqonligi" Nasimxon Raxmon, Toshkent. Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq me'rosi nashriyoti, 1993-y.
7. "Qadimgi turklar" L.N.Gumilyev, Toshkent.O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti. 2007-y.
8. Бичурин Н. Я. Собрание сведений... -С. 229.
9. Staff K. J. Western Turk Rule...-P. 366.